

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

1-2022

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

FarDU. ILMIY XABARLAR – НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК.ФЕРГУ

Muassis: Farg'ona davlat universiteti.

«FarDU. ILMIY XABARLAR – НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК. ФерГУ» "Scientific journal of the Fergana State University" jurnali bir yilda olti marta elektron shaklda nashr etiladi.

Jurnal filologiya, kimyo hamda tarix fanlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnaldan maqola ko'chirib bosilganda, manba ko'rsatilishi shart.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020 yil 2 sentabrda 1109 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Muqova dizayni va original maket FarDU tahriri-nashriyot bo'limida tayyorlandi.

Tahrir hay'ati

Bosh muharrir Mas'ul muharrir

SHERMUHAMMADOV B.SH.
ZOKIROV I.I

FARMONOV Sh. (O'zbekiston)
BEZGULOVA O.S. (Rossiya)
RASHIDOVA S. (O'zbekiston)
VALI SAVASH YYELEK (Turkiya)
ZAYNOBIDDINOV S. (O'zbekiston)

JEHAN SHAHZADAH NAYYAR (Yaponiya)
LEEDONG WOOK. (Janubiy Koreya)
A'ZAMOV A. (O'zbekiston)
KLAUS XAYNSGEN (Germaniya)
BAXODIRXONOV K. (O'zbekiston)

G'ULOMOV S.S. (O'zbekiston)
BERDISHEV A.S. (Qozog'iston)
KARIMOV N.F. (O'zbekiston)
CHESTMIR SHTUKA (Slovakiya)
TOJIBOYEV K. (O'zbekiston)

Tahririyat kengashi

QORABOYEV M. (O'zbekiston)
OTAJONOV S. (O'zbekiston)
O'RINOV A.Q. (O'zbekiston)
RASULOV R. (O'zbekiston)
ONARQULOV K. (O'zbekiston)
YULDASHEV G. (O'zbekiston)
XOMIDOV G'. (O'zbekiston)
DADAYEV S. (O'zbekiston)
ASQAROV I. (O'zbekiston)
IBRAGIMOV A. (O'zbekiston)
ISAG'ALIYEV M. (O'zbekiston)
TURDALIYEV A. (O'zbekiston)
AXMADALIYEV Y. (O'zbekiston)
YULDASHOV A. (O'zbekiston)
XOLIQOV S. (O'zbekiston)
MO'MINOV S. (O'zbekiston)
MAMAJONOV A. (O'zbekiston)
ISKANDAROVA Sh. (O'zbekiston)
SHUKUROV R. (O'zbekiston)

YULDASHEVA D. (O'zbekiston)
JO'RAYEV X. (O'zbekiston)
KASIMOV A. (O'zbekiston)
SABIRDINOV A. (O'zbekiston)
XOSHIMOVA N. (O'zbekiston)
G'OFUROV A. (O'zbekiston)
ADHAMOV M. (O'zbekiston)
O'RINOV A.A. (O'zbekiston)
XONKELDIYEV Sh. (O'zbekiston)
EGAMBERDIYEVA T. (O'zbekiston)
ISOMIDDINOV M. (O'zbekiston)
USMONOV B. (O'zbekiston)
ASHIROV A. (O'zbekiston)
MAMATOV M. (O'zbekiston)
SIDDIQOV I. (O'zbekiston)
XAKIMOV N. (O'zbekiston)
BARATOV M. (O'zbekiston)
ORIPOV A. (O'zbekiston)

Muharrir:

Sheraliyeva J.

Tahririyat manzili:

150100, Farg'ona shahri, Murabbiylar ko'chasi, 19-uy.

Tel.: (0373) 244-44-57. Mobil tel.: (+99891) 670-74-60

Sayt: www.fdu.uz. Jurnal sayti

Bosishga ruxsat etildi:

Qog'oz bichimi: - 60×84 1/8

Bosma tabog'i:

Ofset bosma: Ofset qog'ozi.

Adadi: 10 nusxa

Buyurtma №

FarDU nusxa ko'paytirish bo'limida chop etildi.

Manzil: 150100, Farg'ona sh., Murabbiylar ko'chasi, 19-uy.

**Farg'ona,
2022.**

TARIX

Sh.Hakimova	
O'zbekistonda elektroenergetika sanoatining huquqiy-meyoriy asoslari	113
J.Bo'tayev	
XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida samarqand viloyati qishloq xo'jaligidagi o'zgarishlar.....	118
I.Bohodirov, B.Jurayev	
Turkistonda XIX asr o'rtalarida armiya va harbiy ta'lim	123
A.Yuldashev	
Davlat, boshqaruv va rahbarlik masalasiga oid tarixiy qarashlar va zamonaviy yondashuvlar.....	129
B.Ataxanov	
Mustaqillikning ilk yillarda o'zbekistonning Belarus respublikasi bilan savdo-iqtisodiy munosabatlарining o'ziga xos xususiyatlari	136
Sh.Husanova	
Qadimgi Farg'onanening samoviy tulporlari	140
N.Komilov	
Turkiston muxtoriyati bosh vaziri o'rinnbosari – Islom Shoahmedov hayoti va faoliyatining yangi qirralari.....	146
G'.Raxmonov	
Farg'ona vodiysida suvdan foydalanishniyaxshilashda suvni tejovchi sug'orish texnologiyalarini joriy etishning qulayliklari.....	151
O.Abdunosirova	
Iskandar Mirzo – madaniyat va san'at homiysi sifatida	155
Z.Abdullayev	
Turkistonda mol-mulk musodarasi va rekvizisiya	158
S.Istrolova, G.Karimova	
Tarix fanini o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar va interfaol usullarni loyihalashtirish.....	163

ADABIYOTSHUNOSLIK

Z.Tashtemirova, E.Gizdulin	
Lirk she'riyatning turga oid xususiyatlari	167
N.Sidikova	
Yurt tarixi va el taqdiri talqinlari	173
A.Eshdavlatova	
Rauf parfi ijodida erkin ruhning nostandard isyoni ifodasi	177
J. Xalliyev	
Ogahiy tarixiy va lirk asarlarida falsafiy-ma'rifiy istilohlar istifodasida mushtaraklik	182
E.Qurbanova	
Yassaviy "Pirim" deb ulug'lagan zot	186

TILSHUNOSLIK

K.Yusupova	
Imperativ konstruksiyalarda so'z tartibi.....	190
Yu.Shuxratova, A.Mamajonov	
O'xshatish munosabatini ifodalovchi morfologik vositalar.....	195
A.Yuldashev	
So'z yasalishining kognitiv aspekti	198
X.Dusmatov	
O'zbek milliy so'z o'yinlarining reklama matnlarida ifodalanishi.....	204
N.Umarova, D.Madazizova	
Tilshunoslikda "argo" tushunchasi talqinlari.....	211
G.Majidova	
Til darslarida madaniyatni qamrab olish	215
L.Yo'idosheva	
Muzeylarda turli xil mashg'ulotlar orqali belgilangan jamoalar bilan munosabatlarni shakllantirish	220
N.Mamajonova	
Til darslarida lug'at boyligini oshirishni ilmiy tadqiq qilish	224
G.Isakova	
"Qanotli so'z" va "sitata" tushunchalarining o'zaro farqi.....	229
Z.Alimova	
Ayrim forsiy frazeologik birliklarning o'zbek tilida qo'llanilishi xususida	233
И.Порубай	
Zamonaviy lingvistik bilimlarda "axborot texnologiyalari diskursi" belgilash ta'rifi	238

**TIL DARSLARIDA LUG'AT BOYLIGINI OSHIRISHNI
ILMIY TADQIQ QILISH**

**НАУЧНОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ
УВЕЛИЧЕНИЯ СЛОВАРНОГО ЗАПАСА НА УРОКАХ ЯЗЫКА**

**SCIENTIFIC RESEARCH OF
INCREASING WORDSTOCK IN LANGUAGE CLASSES**

Mamajonova Navruza Ahmadjon qizi¹

¹Mamajonova Navruza Ahmadjon qizi

—Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti magistranti.

Annotatsiya

Mazkur maqolada so'zni turli kontekstda o'qitish orqali o'quvchining so'z boyligini rivojlantiruvchi o'quv topshiriqlari amalij jihatdan tadqiq qilingan. Ushbu topshiriqlarni ona tili darsliklariga tatbiq etish tavsiya etilgan. O'quvchi nutqining muhim ko'satkichlaridan biri uning so'z boyligidir. Maqolada 7 yoshdan 15 yoshgachabo'lgan bolalar o'tasida amalij mashg'ulotlar o'tkazilgan va natijalari yozilgan. Natijalarga ko'ra, hozirgi kunda ona tili ta'limi bo'yicha Davlat ta'lim standartiga ko'ra uch omil: ijodiylik, mustaqil fikr, fikr mahsulini nutqiy vaziyatga mos ravishda og'zaki va yozma shakllarda to'g'ri, ravon ifodalash ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishga erishish muhimligi isbotlangan.

Аннотация

В этой статье рассматриваются практические задания, которые развивают словарный запас учащихся путем обучения словарному запасу в различных контекстах. Эти задания рекомендуется применять к учебникам на родном языке. Одним из важнейших показателей речи учащегося является его словарный запас. В статье описаны результаты практических занятий для детей в возрасте от 7 до 15 лет. По результатам, согласно действующему государственному образовательному стандарту по родному языку, три фактора: креативность, самостоятельное мышление, продукт мышления в соответствии с речевой ситуацией в устной и письменной формах правильно, бегло, важно достижения сформированности и доказано развитие выразительных навыков.

Abstract

This article explores practical assignments that develop students' vocabulary by teaching vocabulary in a variety of contexts. It is recommended that these assignments be applied to native language textbooks. One of the most important indicators of a student's speech is his or her vocabulary. The article describes the results of practical exercises for children aged 7 to 15 years. According to the results, according to the current state educational standard for mother tongue education, three factors: creativity, independent thinking, the product of thought in accordance with the speech situation in oral and written forms correctly, fluently the importance of achieving the formation and development of expressive skills has been proven.

Kalit so`zlar: lug'at boyligi, so'z kuchi, til ta'limi, kontekstda o'qitish, so'z ma'nosini o'zlashtirish.

Ключевые слова. словарный запас, словарный запас, обучение языку, контекстуальное обучение, усвоение слов.

Keywords. vocabulary, vocabulary, language teaching, contextual teaching, word acquisition.

KIRISH. O'quvchi nutqining muhim ko'satkichlaridan biri uning so'z boyligidir. Pedagogik adabiyotlarda berilgan ilmiy ma'lumotlarga qaraganda, 7 yoshli bolalar 3000 dan 7000 gacha, 10-11 yoshli bolalar 8000 dan 15000 gacha, 14-15 yoshdagilar 11000 dan 18000 gacha so'zni bilishlari lozim. Ammo ona tili mashg'ulotlarida fikrni og'zaki va yozma shakllarda bayon qilish zaruriyati tug'ilganda o'quvchilarda so'z boyligining yetishmasligi darrov sezilib qoladi. Nutqda so'zlarni takroriy qo'llash, berilgan so'zni ma'nodoshi, uyadoshi va qarama-qarshi ma'noligi bilan almashtira olmaslik o'quvchilarning so'z boyligi yetarli emasligidan dalolat.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR. Hozirgi kunda ona tili ta'limi bo'yicha Davlat ta'lim standartiga ko'ra uch omil: ijodiylik, mustaqil fikr, fikr mahsulini nutqiy vaziyatga mos ravishda og'zaki va yozma shakllarda to'g'ri, ravon ifodalash ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishga erishish ko'zda tutilmoxda.

Mazkur omillar o'quvchilarning lug'at boyligini oshirishni nazarda tutadi. O'quvchining so'z boyligi qancha ko'p bo'lsa, uning nutqi, imloviy savodxonligi shuncha yuqori bo'ladi. O'quvchilarning so'z boyligi ona tili mashg'ulotlarida boyib borishi lozim[1.7].

TILSHUNOSLIK

O'qituvchi so'z ustida ishlar ekan, assosiy e'tiborni umumxalq ko'p ishlata digan oddiy so'zlarga emas, balki bola nutqida kam qo'llaniladigan so'zlarga qaratishi lozim... O'quvchi tilimizda mavjud bo'lgan ko'p ma'noli so'zlarning barcha ma'nolarini birato'la o'zlashtirib ololmaydi. Chunki u quyi sinflarda so'zning ma'lum bir ma'nosiga duch kelsa keyingi sinflarda shu so'zning yangi ma'nolariga to'qnash keladi. So'zning barcha ma'nolari o'quvchiga ayon bo'lsagina bu so'zlardan foydalanish imkoniyatlari erkin bo'ladi. [2.13-14].

So'zning kontekstdagi ma'nosini o'zlashtirish muammosi so'zni kontekstda o'qitish masalasi bilan bog'liq.

Kontekst – (lotincha contextus – jips, bog'lanish, qo'shilish) – og'zaki va yozma nutq (matn)ning nisbatan tugal qismi. Kontekst o'z tarkibidagi so'zlar yoki iboralarning ma'nolarini aniqlashga imkon beradi. U poetika bilan bog'liq bo'lib yozuvchi mahoratini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi[3.1-jild]

Yangi so'zni turli kontekslarda o'qitish shu so'zning ma'no qirralarini o'rganish bilan birga o'quvchining so'z boyligini oshirishga ham xizmat qiladi.

Masalan, 5-sinf darsligida investitsiya, vitamin, charx, eksponat, qiymat, jild, tadqiqot kabi so'zlar berilgan. Bu so'zlar birgina kontekstda berilgani sababli o'quvchi uchun murakkab tuyuladi va o'quvchilar bu so'zlarning tub mohiyatini anglamagan holda e'tibordan chetda qoldirishadi.

Toshkent tumani 4-umumiyo o'rta ta'lim maktabining 5-sinf o'quvchilarida lug'at boyligini o'zlashtirish darajasi o'rganildi. Tajribada 5-A sinf o'quvchilarining 28 nafari ishtirot etdi. Ularga quyidagi so'zlarni izohlash vazifasi berildi: vitamin, multimedia, mutaxassis, yaxna, kolleksiya, muqobil.

Birgina vitamin so'zining natijalarini tahlil qiladigan bo'lsak, o'quvchilarning 7 nafari bu so'zni shirin dori-darmon, 7 nafari organizm uchun kerakli element, 2 nafari foydali narsa, 2 nafari odamning aqlini charxlaydi, 2 nafari immunitetni kuchaytiradi, 1nafari kalsiy, 1 nafari a va b vitamin, 1 nafari meva deb javob bergan va 1 nafar o'quvchi bu so'zni umuman izohlay olmagan. Bundan ko'rinib turibdiki, o'quvchilarning aksariyat qismi bu so'zni ayrim assotsiatsiyasi orqaligina tushunadi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA. Quyida **vitamin** so'zini turli kontekstda o'qitish va o'zlashtirishga doir metodik topshiriqlarni tavsiya qilamiz.

Hayot moddasi

1. 1893-yilda yosh golland vrachi eykman, vatanini tark etib, Yava orolidagi Baraviya shahriga ko'chib o'tadi va o'sha erda yashay boshlaydi. Bu erda «Beri-beri» deb atalgan dahshatli **kasallik** tarqalgan edi. Lekin bu kasallik faqat Yavada emas, Xitoy, Yaponiya, Koreya kabi Sharqiy Osiyo davlatlarida, Afrika va Janubiy Amerikaning bir qancha davlatlarida ham keng tarqalgan bo'lib, eykman kasallikning asosan muttasil guruch iste'mol qiladigan aholi orasida uchrayotganligiga e'tibor qaratdi. Odam yoki jonivorlar «Beri-beri» bilan hastalanganida avval qo'llari, keyin oyoqlari qotib qolardi, bo'yinning tomirlari tortishib, bemorlar aksariyat hollarda **vafot etardilar**. Eykman kasallikni davolash uchun jiddiy izlanishga kirishdi. U turli vositalarni davomli ravishda sinab ko'rdi. Lekin, uning biror bir dorisi yoki muolajasidan davolovchi ta'sir kuzatilmas edi.

Yavada bu kasallikning tarqalishiga bir yil to'lganida eykman umidini uza boshladi. Kunlardan bir kun u **tovuqlarning** ham bo'yni tortishib, shumshayib qolganligini ko'rib qoldi. «Ularda ham bu bedavo kasallik boshlanibdi» - deb o'yldi eykman.

Yosh vrach, kasallikning sababini topish uchun o'sha to'dadagi tovuqlarni kuzata boshladi. Bu tovuqlar kasalxonadagi chiqindi guruchlarni iste'mol qilganidan keyin, ularda kasallik alomatlari paydo bo'lmoxda ekan.

Kasallik boshlanib kelayotgan tovuqqa guruchning o'zi emas, balki kepagini berilsa, tovuq yana **jonlanib**, tuzala boshlar edi. Efkman guruch kepagida «beri-beri»ni davolovchi modda bor deb taxmin qildi. Efkman guruch kepagidan dori tayyorlash, bemorlarni tuzatish mumkinligini aniqlagan bo'lsa-da, uning aynan qaysi modda ekanligini topishga muvaffaq bo'lolmadı.

Bu ishni 1912-yilda polyak olimi Funk uddaladi. U o'z laboratoriyasini haqiqiy ma'nodagi kaptarxonaga aylantirib yuborgan edi. Tokcha **to'la** kaptarlar qamalgan qafaslar bo'lib, Funk Efkman to'plagan ma'lumotlar asosida, kaptarlarni faqat **oq** guruch bilan boqdi. «Beri-beri» bechora kaptarlarni panjalarini tortishtirib, bo'yinlarini changak qilib harakatlantirmay qo'yardi.

Shu asnoda Funk yuzlab kaptarlarning boshiga etdi. Ammo butun insoniyatga mislsiz darajada naf keltirgan kashfiyotni amalga oshirishga muvaffaq bo'ldi. Funk guruch kepagidagi davolovchi sirni ochdi! Funk guruch kepagidan ajratib olgan 4 milligram modda kasallangan **kaptarni** tuzatdi. Bu modda «hayot moddasi» (**lotincha: vita - hayat**) deb nomlanish oldi.

Singa degan juda og'ir **hastalik** bor. Bunda bemorning tanasini qora dog' va **yaralar** qoplab oladi. Milklar qonab, tishlar to'kiladi. Oyoq va qo'lllar shishib ketadi. Olimlar Singaning ham davosini topishdi. Bemorlarga endi guruch kepagi o'rniغا endi yangi ko'k piyoz, karam va kartoshka berilsa, bu hastalik ham engilardi. Shuningdek, limon, pomidor va ituzum mevalari ham singada yaxshi ta'sir ko'rsatar edi. Demak, ularda ham Singaga aks ta'sir qiluvchi vitaminlar mavjud degan xulosaga kelishdi olimlar.

2. Vitaminlar shartli ravishda lotin alifbosining A,B,C,D kabi harflari bilan belgilangan.

A vitaminini manbalari

Uning ozuqaviy manbalari bu – baliq va jonivorlarning jigari, sariyog', qaymoq, pishloq, tuxum sarig'i, baliq yog'idir. Ko'rish organlari bilan bog'liq ko'pgina kasallikkarni davolashda yordam beradi. Uning boshqa nomi – Immunitet vitamini. Chunki u tananing infeksiyalarga qarshi kurashish qobiliyatini orttiradi. Teri va sochni go'zal, sog'lom holatda saqlaydi. Bola bo'yining o'sishida yordam beradi, **B6 vitamin** tarkibiga ega asosiy mahsulotlar – jigar, fasol, yormalar (grechka, sok), bug'doy uni, drojji.

C vitamin organizmni kasallikka qarshi kurashish qibiliyatini ko'taradi. Qon tomiri tizimi va terida dog' paydo bo'lmasi uchun zarur. Bu vitamin barcha sitrus mevalarda, qulupnay, malina, karam, petrushka, ukrop, qizil qalampir va baqlajonda ko'p bo'ladi. C vitaminini barcha mevalarda va yam-yashil ko'katlarda mavjuddir. Na'matak, qora smorodina, shirin bulg'or qalampiri, ukrop, petrushka, gulkaram va karamda, apelsin, qulupnay, olmalar, gilos, kartoshka va boshqa mahsulotlarda mavjuddir. Uning miqdori ayniqsa, petrushka, na'matak, qora smorodinalarda ko'pdir.

D vitamin suyaklarni mustahkamlaydi, tish va tish milkalarini sog'lomlashtiradi. Uni "Quyosh vitamini" deb ham atashadi.

K vitamin yog'da eruvchan bo'lgani sabab ham uning organizmga singishi uchun yog'lar zarur hisoblanadi. Masalan, ismalloq mazkur vitaminga boy mahsulot, lekin unga yog' qo'shilmasa, qancha ko'p miqdorda iste'mol qilinsa ham samara bermasligi mumkin. Karam, brokkoli, salat bargi, soya, qovoq va qorag'at singari mahsulotlar ham K vitaminining manbayi.

3. Kuz fasli kelishi bilanoq dalalarimizda **vitaminlar** g'arq pishadi. Ushbu sahifani vitaminlarga boy va mazali bo'lgan qovoqvoyga bag'ishlaymiz. Polizimiz pahlavoni darmondorilarning koni bo'lib, yuzlab kasallikkarga davodir. Kaliy, temir, kalsiy, magniyga boy bo'lgani uchun asablarni tinchlantiradi, uyqusizlik, moddalar almashinuvini yaxshilaydi, kuchli va yog'li ovqatlarning hazm bo'lishiga yordam beradi. Qabziyatda, bo'y o'stirishda, raxit kasalida, yurak-qon tomir xastaliklarida ham bizga ko'makchi.

Mazkur masalaning metodik jihatlari quydagicha:

I. To'g'ri javobni “+” belgisi asosida belgilang.

	Eykman	Funk
Kasallikni davolash uchun jiddiy izlanishga kirishdi. U turli vositalarni davomli ravishda sinab ko'rdi.		
U o'z laboratoriyasini haqiqiy ma'nodagi kaptarxonaga aylantirib yuborgan edi		
Kunlardan bir kun esa, xizmatchilardan birining tovuqlarining ham bo'yni tortishib, shumshayib qolganligini ko'rib qoldi. «Ularda ham bu bedavo kasallik boshlanibdi» - deb o'yladi		
Shu asnoda u yuzlab kaptarlarning boshiga etdi. Ammo butun insoniyatga mislsiz darajada naf keltirgan kashfiyotni amalga oshirishga muvaffaq bo'ldi.		

TILSHUNOSLIK

Kasallikning sababini topish uchun o'sha to'dadagi tovuqlarni kuzata boshladi.		
U guruch kepagidagi davolovchi sirni ochdi!		
Guruch kepagidan dori tayyorlash, bemorlarni tuzatish mumkinligini aniqlagan bo'lsa-da, uning aynan qaysi modda ekanligini topishga muvaffaq bo'lomadi.		

II. Ushbu jadval asosida vitaminlar va ularning xususiyatlarini muvofiqlashtiring.

A vitamin	Bu vitamin barcha sitrus mevalarda, qulupnoy, malina, karam, petrushka, ukrop, qizil qalampir va baqlajonda ko'p bo'ladi.
B6 vitamin	ismaloq mazkur vitaminga boy mahsulot, lekin unga yog' qo'shilmasa, qancha ko'p miqdorda iste'mol qilinsa ham samara bermasligi mumkin.
C vitamin	Uning ozuqaviy manbalari bu – baliq va jonivorlarning jigari, sariyog', qaymoq, pishloq, tuxum sarig'i, baliq yog'idir.
D vitamin	tarkibiga ega asosiy mahsulotlar – jigar, fasol, yormalar (grechka, sok), bug'doy uni
K vitamin	suyaklarni mustahkamlaydi, tish va tish milklarini sog'lomlashtiradi. Uni "Quyosh vitamini" deb ham atashadi

III.Tasavvur qiling siz quyidagi holatlarda qaysi vitaminga boy mahsulotlarni iste'mol qilasiz?

1. Teringizda dog' paydo bo'lganda....
- 2.Tishlaringiz sinishni boshlasa yoki suyaklaringz qotib qolsa...
- 3.Ko'rish bilan bog'liq muammolar paydo bo'lsa...

IV. Tayanch so'zlardan foydalanib gaplarni to'ldiring va ulardan qaysi biri ortiqcha?

Vitamin, qovoq, xastaliklar, guruch kepagi, 4 milligram modda.

Funk guruch kepagidan ajratib olgan _____ kasallangan kaptarni tuzatdi.

Ko'k piyoz, karam va kartoshka, limon, pomidor va ituzum mevalari singa kasalligida yaxshi ta'sir ko'rsatar edi. Demak, ularda ham Singaga aks ta'sir qiluvchi _____ mavjud degan xulosaga kelishdi olimlar.

Agar mazkur vitaminlardan birortasi etishmasa, inson organizmida turli ning kelib chiqishiga sharoit tug'iladi.
_____ kaliy, temir, kalsiy, magniya boy bo'lgani uchun asablarni tinchlantiradi, uyqusizlik, moddalar almashinuvini yaxshilaydi, kuchli va yog'li ovqatlarning hazm bo'lishiga yordam beradi.

V. Matn tarkibida ajratib ko'rsatilgan so'zlarni quyidagi jadvalga joylashtiring.

Ma'nodosh so'zlar	
Zid ma'noli so'zlar	
Shakldosh so'zlar	
Uyadosh so'zlar	

VI. Kuz fasli kelishi bilanoq dalalarimizda vitaminlar g'arq pishadi. Matndagi ushbu gapda qo'llangan vitaminlar so'zini qaysi so'z bilan almashtirib qo'llash mumkin va nima uchun?**VII. Yuqorida matndan foydalanib, ushbu so'zlarga izoh yozing:**

Muolaja-
Chiqindi-
Kepak-
Organizm-

VIII. Siz kundalik hayotda qanday vitaminga boy taomlar iste'mol qilasiz?

Bunday o'quv-metodik topshiriqlar o'quvchi uchun qiziqarli bo'lishi bilan birga nafaqat yangi so'zni o'zlashtirishga, balki shu so'zning kontekstdagi ma'nosini o'rganishga ham imkon yaratadi. SHu sababli bunday topshiriqlar maktab darsliklariga kiritilishi ham maqsadga muvofiq.

Har bir tilning o'ziga xos so'z boyligi va grammatic tuzilishi borligi sababli, ifoda etilgan tushunchalar foydalanuvchi tajribasi, g'oyalari va qiziqishlarini aks ettiradi. So'z boyligining etishmasligi o'quvchining ko'r xato qilishiga sabab bo'ladi. Matnda so'zning qaysi ma'nosi nazarda tutilganligini aniqlash, zarur bo'lgan kontekstni, mavzuni va xulosani bilish uchun o'quvchida shu so'z haqida etarli ma'lumot bo'lishi kerak [4.13-14].

Buning uchun esa yangi so'zlarini kontekstda o'qitishni boshlashimiz kerak, ammo keyingi bosqichda talabalarga kontekstdan tashqarida so'zlar bilan ishlash imkoniyatini berish kerak.[5.122]

Shuni unutmaslik lozimki, tilimizda mavjud bo'lib o'quvchi birinchi marta duch kelayotgan so'zlar ham uning uchun yangidir.[2.15].

Shu sababli topshiriq uchun so'z tanlashda o'qituvchi uning iste'mol doirasini hisobga olishi lozim. Iloji boricha o'quvchilar nutqida kam uchraydigan yoki umuman uchramaydigan so'zlardan foydalanish maqsadga muvofiq [6.18].

XULOSA. Natijalardan xulosa qilinadigan bo'lsa o'quvchi uchun tanlangan so'z ayni paytda yangi va shu bilan birga turli kontekstlarda ifoda etilgan bo'lishi kerak. Bunda turli fanlararo integratsiya amalga oshirilsa, yanada samarali natijalarga erishiladi. Bunday natijaga erishishda esa yangi so'zlarini kontekstda o'qitishni boshlashlanishi zarur. Shu sababli topshiriq uchun so'z tanlashda o'qituvchi uning iste'mol doirasini hisobga olishi lozim. Iloji boricha o'quvchilar nutqida kam uchraydigan yoki umuman uchramaydigan so'zlardan foydalanish? Shu bilan birga ularning yoshini inobatga olgan holda amalga oshirish maqsadga muvofiq. Shu ma'noda hozirgi kunda Oliy ta'lum muassasalari tayyorlanayotgan tilshunos talaba va magistrlariga kontekstdan tashqarida so'zlar bilan ishlash bilim va ko'nikmalarini berish zaruratiga aylanmog'i lozim.

ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. Baltayeva M. Maktabda til sathlarini bog'lab o'rgatish muammolari: BMI- N. NDPI, 2014 у. (Балтаева М. Проблемы преподавания языковых уровней в школе: БМИ-Н. НДПИ)
2. Ziyadova T. Ona tili ta'limi jarayonida o'quvchilarning so'z boyligini oshirish.: P.f.n diss. – Т, 1995 у. (Зиядова Т. Совершенствование словарного запаса учащихся в процессе обучения родному языку..)
3. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 1-jild. – Toshkent, 2000 у. (Национальная энциклопедия Узбекистана. Том 1 - Ташкент)
4. Carmen M. Learning vocabulary in context through explicit instruction improves language learning in the classroom. Dissertation for teaching english to speakers of other, 2020 у. (Кармен М. Изучение словарного запаса в контексте с помощью наглядных инструкций улучшает изучение языка в классе. Диссертация по обучению английскому языку носителей других)
5. Nunan D. "Language teachin methodology" A textbook for teachers, 1991 у. (Нунан Д. «Методика преподавания языка» Учебник для учителей)
6. Saidov M "O'zbek maktablarining 5-sinflarida ona tili ta'limi jarayonida tafakkurni rivojlantiruvchi o'quv topshiriqlari va ulardan foydalanish metodikasi: P.f.n diss. – Т., 2008у. (Сайдов М. «Учебные задачи, развивающие мышление в процессе обучения родному языку в 5-м классе узбекских школ и методика их использования: П.ф.н дис. – Т)

(Taqrizchi: A.Mamajonov – Filologiya fanlari doktori, professor)